XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-72-233-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21- sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda “Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy budjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” gi VI-79-249-7-0-K/22-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21 sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida hamda O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq LXXII-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda “Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy budjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” gi VI-79-249-7-0-K/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda

“Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21 sonli qarorining 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21 sonli qarorining 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Tuman hokimiligi moliya bo‘limi (G‘.Burxonov) tuman mahalliy budjetining 2022 yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Baxodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-72-233-7-94-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21- sonli qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar:

1.Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21- sonli qarori 1-ilovasi quyidagi tahrirda bayon etish:

1-ilova

2022-yil uchun Jomboy tuman mahalliy budjetining daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI DAROMADLAR	**98,881,278**
1	Foyda solig‘i	2,936,235
2	Aylanmadan olinadigan soliq	8,433,400
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18,323,177
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	1,301,000
5	Aksiz solig‘i, jami	13,222,000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	922,901
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5,550,000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1,228,900
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9,368,200
10	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3,250,000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,880,665
12	Yig‘imlar	1,732,300
13	Ijara	57,500
14	Aloqa xizmatlari ko‘rsatish uchun aksiz solig‘i	6,183,000
15	Alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i	10,853,000
16	Tamaki mahsulotlaridan aksiz solig‘i	11,639,000

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-72-233-7-94-K/22-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21- sonli qarori 2-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar:

1.Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-46-115-7-94-K/21- sonli qarori 2-ilovasi quyidagi tahrirda bayon etish:

2-ilova

2022-yil uchun Jomboy tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar jami	**221,534,737**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	10,559,685
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	27,003,753
3	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	66,290,116
4	Madaniyat bo‘limi	3,589,635
5	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	3,490,074
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1,739,435
7	Irrigatsiya tizimlari bo‘limi	3,477,279
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1,439,585
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	760,339
10	Moliya bo‘limi	1,618,331
11	Tuman xokimligi	95,830,509
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi dagi muassasalar	534,607
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	206,500
14	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	2,950,211
15	Oila va xotin-kizlar bo‘limi	1,446,830
16	Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi	597,850